



UDK: 821.512.133.09

*Chaman JONUZOQOVA,  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD B.Xoliqov taqrizi asosida*

### SHARLOTTA BRONTE SHE'RLARIDA AYOL RUHIY KECHINMALARINING TARJIMADA BERILISHI

Аннотация

Maqolada she'riy tarjimaning o'ziga xosligi, murakkabliklari yoritilgan. Shuningdek, ayollar she'riyatining xususiyatlari ham sanab o'tilgan. Bu orqali mavzuni kengroq tushunish uchun ma'lumotlar berildi. Angliya yozuvchi va shoirasi Charlotta Bronte ijodining xarakterli xususiyatlari keltirilib, she'rlaridagi asosiy mavzular aytib o'tildi. Maqola davomida shoiraning bir nechta she'rlari vositasida ayol ruhiy kechinmalari tahlil qilindi. She'rlar tarjimon Qandilat Yusupovanning tarjimasida asosida ko'rib chiqildi. She'rlar tahlilida badiiy ifodaning va ritmning saqlanish usullari ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** She'riy tarjima, ayol ruhiyati, emotsiya, ritm, hissiy ifoda, mohiyat tarjimasida.

### TRANSLATION OF WOMEN'S SPIRITUAL EXPERIENCES IN CHARLOTTE BRONTE'S POEMS

Annotation

The article highlights the uniqueness and complexities of poetic translation. The characteristics of women's poetry are also listed. Through this, information is provided for a broader understanding of the topic. Characteristic features of English writer and poetess Charlotte Bronte's work are counted and the main themes of her poems are mentioned. In the article, women's spiritual experiences are analyzed through several poems of the poetess. The poems are reviewed based on the translation of the translator Qandilat Yusupova. The methods of preservation of artistic expression and rhythm are considered in the analysis of poems.

**Key words:** Poetic translation, feminine spirituality, emotion, rhythm, emotional expression, essence translation.

### ПЕРЕВОД ЖЕНСКИХ ДУХОВНЫХ ОПЫТОВ В СТИХОХ ШАРЛОТТЫ БРОНТЕ

Аннотация

В статье освещаются своеобразие и сложности поэтического перевода. Также перечислены особенности женской поэзии. Благодаря этому предоставляется информация для более широкого понимания темы. Рассмотрены характерные особенности творчества английской писательницы и поэтессы Шарлотты Бронте и обозначены основные темы ее стихотворений. В статье женские духовные переживания анализируются через несколько стихотворений поэтессы. Стихи рецензируются на основе перевода переводчицы Кандилат Юсуповой. При анализе стихотворений рассматриваются способы сохранения художественной выразительности и ритма.

**Ключевые слова:** Поэтический перевод, женская духовность, эмоция, ритм, эмоциональное выражение, суть перевода.

**Kirish.** She'riy tarjima nafaqat ma'no, balki uslub, ritm, emotsiya va madaniy kontekst bilan birga badiiy topilmalarni ham qayta jonlantirib uzatishni anglatadi. Tarjimon she'riy asarning haqiqiy ma'nosi bilan birga muhim tushunchalarini ham saqlashi lozim. Ritm, ohang va tovush takrorlanishlarini saqlash esa tarjimaga o'ziga hoslik beradi. Nazmdagi madaniy unsurlar, ramzlar, an'analar va shu bilan birga she'r o'z ichiga olgan kuchli hissiyotlarning kontekstini hisobga olish ham tarjimon uchun murakkablikni tug'dirishi mumkin.

She'riy tarjima bir vaqtning o'zida ham texnik jarayon, ham estetik va emotsional jarayon hisoblanadi. Bu tarjimondan ijodkorlik, o'z uslubi va keng tasavvurga ega bo'lishni talab qiladi.

She'riy tarjima jarayonida yuzaga keluvchi asosiy muammolar quyidagilar: Tarjima jarayonida she'rning chuqur ma'no va kontekstini anglash, ma'noni yo'qotmagan holda o'ziga xos ritmni saqlab qolish, madaniy elementlarni to'g'ri ifodalash, tilning grammatik va leksik xususiyatlari haqida bilimga egalik, tarjimon shaxsiy fikri yoki qarashlarining she'r asl mazmuniga mosligi va albatta she'r ruhini saqlab qolish.

She'rning o'zi kuchli hissiy hodisa, ayollar she'riyati esa bu yanada kuchli hisning matnda aks etishi deya olamiz. Ayol ruhiy kechinmalari ko'plab muhim mavzularni o'z ichiga oladi va bu kechinmalar ko'pincha shaxsiy tajribalar, ijtimoiy muammolar va madaniy kontekstlar bilan bog'liq.

Ayollar she'riyatida ruhiy kechinmalarni aks ettiruvchi ba'zi jihatlar quyidagilar: ayollar she'riyatida ko'pincha ichki kurashlar, o'z-o'zini anglash va o'zligini qabul qilish jarayonlari tasvirlanadi, sevgi, yo'qotish va ayriliq kabi hissiyotlar ayollar she'riyatida keng tarqalgan. Bu kechinmalar ko'pincha chuqur hissiy ifodalar bilan birga keladi va o'quvchilarga ayolning ichki dunyosini ochib beradi, ayollar she'riyatida ijtimoiy adolatsizliklar, gender tengsizligi va ayollarning jamiyatdagi o'rni kabi mavzular ham ifodalangani. Bu kechinmalar ko'pincha ayollarning umidlarini aks ettiradi, onalik qiyinchiliklari va go'zalliklari, o'z-o'zini anglash va o'z shaxsiyatini qabul qilish jarayonlari, ayolning o'ziga bo'lgan ishonchini va o'zligini qidirish jarayoni, ichki hissiyotlarni tabiat orqali aks ettirish va boshqalar. Ayollar she'riyati chuqur hissiy tajribalarni ifodalashi bilan ham xarakterlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shunday shoiralardan biri Charlotta Brontedir. Ingliz adabiyotining muhim shaxslaridan biri, romanchilik faoliyati bilan tanilgan, shoira sifatida ham e'tirofga munosib ijodkor. She'riyati ko'plab mavzularni o'z ichiga oladi va uning ichki kechinmalari, hissiyotlari va ijtimoiy muammolari aks ettiradi.

Quyida Charlotta Bronte shoira sifatida ba'zi asosiy jihatlarini keltirib o'tamiz: asarlarida o'z-o'zini anglash, sevgi, yo'qotish va umidsizlik kabi mavzular ko'plab uchraydi, tabiatni, inson ruhini va hissiyotlarini tasvirlashda kuchli tasvirlar va ifodalar ishlatadi, ayolning jamiyatdagi o'rni va

uning kurashlarini ko'rsatadi, inson ruhining murakkabligi, sevgi va umid, shuningdek, ijtimoiy adolatsizliklar borasida fikrlarini va hissiyotlarini ochiq ifoda etadi.

Angliya adabiyotida o'chmas o'rni ega shoira shoiraning she'rlari tarjimasini tahlil qilish jarayonida ham ayollarga xos kechinmalar qanday nozik ifoda etilganini yana bir bor anglaymiz. Shoira shoiraning she'rlarini tarjimon Qandilat Yusupova talqinida tahlil qilamiz.

Shoira "Evening Solace" [1] (Tun darsligi) [2] she'rida shunday yozadi:

But, there are hours of lonely musing,  
Such as in evening silence come,  
When, soft as birds their pinions closing,  
The heart's best feelings gather home.

She'r sarlavhasidan ma'lumki, unda tun kechinmalari bayon qilingan. O'zi bilan yolg'iz qolgan insonning hayot beradigan og'riqlariga daldasi aks ettiriladi. Shoira "hours of lonely musing" birikmasi orqali tanho o'y surish fursatlarini anglatadi. Yurakning eng sara tuyg'ularini qushlarga qiyoslaydi va bu tuyg'ular "uyga" jamlanadi jumlasini orqali tuyg'ular uyi yurak ekanligini anglash qiyin emas. Tarjimon she'rni o'zbek tiliga tarjima qilishda she'r ritmi va ruhiyatini samarali saqlab qoladi:

Kechalar shundayin berahm hakam,  
Oromin o'g'irlar havoyi qalbning.  
Sodiq qushchalarday hislar bo'lib jam  
Yurakka yog'ilib kelishar keyin.

Yolg'izlikda o'y surayotgan inson qiyofasini qayta yaratish uchun tarjimon "havoyi qalb" so'zini ishlatadi. "Berahm hakam" ifodasi esa, tunda so'zlovchini chulg'ab olgan hislar vijdon bilan bog'liq ekanligi va bir qadar og'riqliligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Tarjimon aslyatda ifodaviy berilgan uy so'zini asl mazmunida tarjima qiladi. "Soft" so'zini esa "Sodiq" sifati bilan almashtiradi. Bu almashish she'r mohiyatini yanada chuqur beradi. Chunki yurakka yig'ilib keluvchi hislar unga begona emasligi, ularning "sodiqlikiga" ishora qiladi. Keyingi parchada shoira shunday yozadi:

Then in our souls there seems to languish  
A tender grief that is not woe;  
And thoughts that once wrung groans of anguish,  
Now cause but some mild tears to flow.

Shoira yolg'izlikdagi insonning hissiy kechinmasini juda chuqur tasvirlaydi. Hislarning qalbda kuchsizlanib, nochor qolishini "languish" fe'li orqali beradi. Ikkinchi misrada "woe" so'zi kuchli qayg'uni, musibatni anglatgani holda, yengil dardning musibat emasligini aytib ovunadi. Qachondir kuchli hissiy og'riqdan ig'lashga olib kelgan o'ylar, endi mayin ko'z yoshlarning oqishigagina sabab bo'ladi deydi. Endi esa tarjimonning mahoratiga e'tibor beramiz:

Keyin dil to'kilar, hasrat to'kilar,  
Dard g'anim bo'limgay ko'ngilga hech vaqt.  
Tunlari vijdonga azob yog'ilar,

Tunlari ko'zlardan quyiladi dard.

Tarjimon kuchsizlangan hislarni o'zbek o'quvchisi badiiy kontekstda juda oson, ravon anglovchi badiiy ifodaga almashtiradi. Dil va hasratning to'kilishi shoira ifoda qilmoqchi bo'lgan badiiy tasvirning ham mazmunan ham mohiyatan tarjimasini bo'la oladi. Keyingi misralarda ikki tasvirning bir so'z bilan bog'lanishi ularni mazmunan biriktiradi. Parchaning yakuniy misrasida "mild tears" birikmasini dard ifodasi bilan beradi. Sezganingizdek, bu holatda ham tarjimon mohiyatni tarjima qilib uzatadi.

Shoira Parting[3]. (Ayriliq)[4] she'rida ayriliq hissi ham dardli ham isyonkor ham faylasufona ifoda topadi:

Then shall heart with warm heart meeting,  
Give responsive tone for tone.

Misrada yuraklarning uchrashuvi va ulardagi ohangdoshlik aks ettiriladi. Tarjimon "warm heart" so'zini yurak iliqqligini anglatishini namoyon qilgani holda "pok yurak" deb ifodalaydi. "Tone to tone" ifodasini esa uyg'unlikda samoda parvoz etish bilan qayta jonlantiradi:

Qalbim sening pok qalbing bilan  
Samolarda uchadir go'yo

Yuqoridagi misollardan anglash mumkinki, she'r tarjimasini kuchli ijodkorlikni talab qiluvchi jarayon. Tajribasiz tarjimon she'rning biror elementini saqlash uchun boshqasini qurbon qilishiga to'g'ri keladi. Lekin ijodkor tarjimon barcha elementlarni saqlashni uddasidan chiqqa oladi. Nazm bu badiiyatning har jihatdan yuksakka chiqqan ko'rinishidir. She'rda mavjud ruhiyat ifodasini qayta tirlitirish tarjimonidan chuqur bilim va anglashni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qandilat Yusupova tarjimarida tarjimaning o'zi shunchaki izoh emas yana yaxlit bir she'rga, ijod namunasiga aylangan. Abdulla Qahhor o'zining 1962-yilda yozilgan "Tarjimachilik tashvishlari" maqolasida aytganidek, "Har bir yirik san'atkor milliy madaniyatni jahon adabiyotining durdonalari bilan boyitishga o'zining butun kuch-quvvatini sarflashi kerak. Badiiy tarjima yozuvchining o'zi uchun ham katta mahorat maktabi bo'ladi"[5].

Tahlil va natijalar. She'riy tarjima asrlar davomida turli madaniyatlar o'rtasida muloqotni ta'minlab kelgan. Turli madaniyatlar o'zaro ta'sir ko'rsatgan holda rivojlangan. Alisher Navoiy va uning "Xamsa"si, Fors adabiyoti bilan chuqur bog'liqligi sababli, ko'plab fors she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilishga ilhom bergan. XX asrda, o'zbek shoirlari ko'plab chet el she'riyatini o'z tiliga o'girish orqali global madaniyatni o'z asarlarida aks ettirdilar. Ularning tarjimalari, o'zbek she'riyatining boyligini yanada oshirib, yangi uslub va g'oyalarni olib keldi.

Xulosa va takliflar. Tarjima jarayonida she'rning ritmi va ma'nosi saqlanishi zarur, shuning uchun bu har doim ham oson bo'lmaydi. She'riy tarjima, madaniyatlararo muloqotni kuchaytirishga, yangi avlodlarni ilhomlantirishga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Charlotte Brontë poems. Poemhunter.com - The World's Poetry Archive 2012.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/opa-singil-brontelar-sheriyatidan-guldasta.html>
3. Qozoqboy Yo'ldoshev — So'z yolqini. G'afur G'ulom nomidagi NMAK, 2018.
4. Dilmurod Qur'onov. — Adabiyot nazariyasi asoslari, T. — Navoiy universiteti, 2018.
5. Yoldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. — T.: Kamalak, 2016.
6. <https://www.ziyouz.com>